

MILLIY TARBIYANI RIVOJLANTIRISH-GLOBALLASHUV SHAROITIDAGI ZARURIYAT SIFATIDA

Nilufar Maxsudovna Koshanova

v,v,b, dosent., Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

koshanovanilufar512@gmail.com

Gulruh Isroil qizi Aliyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolamizda globallashuvning yoshlari tarbiyasi va millat mentalitetiga salbiy ta’sirlari, o’sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma’naviyat, keng dunyoqarash, kuchli tafakkurni shakllantirish, ogohlilik va sergaklik ruhida tarbiyalashda milliy tarbiyaning o’rni va ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so’zlar. milliy tarbiya, globallashuv, fxborot asri, milliylikning shaffoflashuvi, ogohlilik, begonalashuv, ijtimoiy tarmoqlar, milliy qadriyatlar, yosh avlod, strategik maqsad.

ABSTRACT

In this article, we analyze the negative impact of globalization on the education of youth and the mentality of the nation, the role and importance of national education in the formation of high spirituality, a broad worldview, strong thinking, consciousness and vigilance among the younger generation.

Keywords. national education, globalization, the era of globalization, transparency of nationality, awareness, alienation, social networks, national values, young generation, strategic goal.

KIRISH

Tarbiya masalasi insoniyat paydo bo‘lgandan buyon eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelmoqda. Tadqiqotchilar fikricha, insoniyat hayotining ibtidoiy davrlarida bolalarni tarbiyalashda stixiyali g‘oyalar paydo bo‘lgan va tarbiya mazmuni turli davrlarda, turli xalq, millat va elatlarda u yoki bu shaklda bo‘lishiga qaramasdan ibtidoiy to‘da davridan insoniyat ongli yoki ongsiz ravishda ushbu murakkab va uzluksiz jarayonni amalga oshirib kelmoqda. Shu o‘rinda jamiyatda yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalash

dolzarb muommo bo‘lib kelgan va doimo shunday bo‘lib qoladi. Hozirgi mafkuraviy tahdidlar kundan kunga kuchayayotgan ayni paytda yoshlarni, ayniqsa, maktab o‘quvchilarini tarbiyalash muommolarini hal etish masalasini qiyinlashtirmoqda. Chunki, bugungi zamonaviy jamiyatda aksariyat bolalarning irodaviy rivojlanishda zaiflik va hatti-harakatlarida salbiy harakter xususiyatlarning namoyon bo‘lishi, o‘sib kelayotgan yosh avlodni axloqiy sifatlarini tarbiyalashni yetakchi masala sifatida namoyon qiladi. Yoshlarning ma’lum bir qismi ayniqsa o‘smirlar tomonidan qabul qilingan ideallar, me’yor, hamda qadriyatlar yosh avlodni axloqiy va irodali tarbiyalashning butun tizimini takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlар tarbiyasi masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushbu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qiladi. Mamlakat yoshlарini ma’nан va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro‘yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalb etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo‘llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI VA METADALOGIYASI

Mahalliy tadqiqotchilardan **O.Musurmonova** o’smir yoshlarning ma’naviy madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari; **K.Hoshimov**, **O’.Asqarova**, **B.Ziyomuhamedova**, **Sh.Abdullaeva**, **J. Yo‘ldoshevlar** axloq va axloqiy tarbiyaning pedagogik muommolari; J.Tulenov, Q.Nazarov, G.Tulenovalar axloq va axloqiy qadriyatlarning falsafiy jihatlarini tizimli ravishda tadqiq qilganlar. **Jabborov X.X.** mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik vositalari; **Sh.N.Taylakov** globallashuv jarayonida yoshlarning g‘oyaviy-mafkuraviy immunitetini ommaviy axborot vositalarining o’rni; **N.Rajapov** globallashuv jarayonida yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonidagi muommolarga keng e’tibor qaratadi. MDH tadqiqotchilaridan V.P.Baxterev, K.N.Venttsel, F.Kapterov, P.F.Lesgaft, Ya.A.Komenskiy, A.S.Makrenko, K.D.Ushinskiy va boshqalar o‘sib kelayotgan yosh avlodda axloqiy sifatlarni tarbiyalashning muommolari va tarbiyaning dolzarb masalalari; V.G.Fedotova, V.A. Kolpakov, N.N.Fedotovlar globallashuv oqibatida sodir bo‘lgan ijtimoiy o‘zgarishlar; N.M.Gamidova globallashuv jarayonining yoshlар tarbiyasiga ta’siri; M.O.Mnatsakanyan globallashuvnning shiddatli tus olishida axborot texnologiyalari rivojlanishining bevosita ta’siri bo‘yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar. Shuningdek, E.V.Bondarevskaya, O.S.Bogdanova,

R.S.Bure, A.M.Vinogradova, S.A.Kozlova B.T.Lixchaev va boshqalar shaxsni axloqiy tarbiyalash muommolarini o'rgangan. Axloqiy tarbiya muommosiga antik davr mutafakkirlaridan Suqrot, Platon, Aristotel, Foma Akvinskiylar, yangi davr olimlaridan I.Kant, G.Gegel va boshqalar e'tiborini qaratganlar.

Xorijiy olimlardan Ingliz sotsiologi E.Giddens globallashuv jarayonining xususiyatlari va namoyon bo'lish shakllarini ilmiy jixatdan tizimli o'rgangan.

Globallashuv sharoitida milliylikning shaffoflashuvi va uning salbiy ta'sirlaridan himoyalanishda milliy tarbiya asoslarini rivojlantirish zaruriyat mavzuni belgilashimizga asos bo'lib xizmat qildi.

MUHOKAMA

XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog'lom, ma'naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo'lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo'layotgan jarayonlarga loqayd bo'lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo'lishi lozim. Bugungi globallashuv jarayonlari, fan-texnika taraqqiyoti, innovasion jamiyatga bo'lgan ehtiyoj yoshlar uchun ko'plab imkoniyatlar yaratmoqda. Ular oldiga tezkor qarorlar qabul qilish, innovasion tafakkurni shakllantirish, intellektual salohiyatni oshirish bilan birga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq bo'lishdek hayotiy talablarni qo'yamoqda. O'sib kelayotgan yosh avlodda yuksak ma'naviyat, keng dunyoqarash, tafakkurni shakllantirish, ogohlilik va sergaklik ruhida tarbiyalash davr talabiga aylandi. Sababi fikrlash, tahlil qilish, idrok qilish qobiliyatiga ega bo'lman yosh avlod faqat topshiriqni bajaruvchi manqurtga aylanishi ehtimoli mavjud. Manqurtlar esa kechagi, bugungi, kelgusi kun haqida o'ylamaydi. Ular inson uchun zarur bo'lgan erk, haq-huquq va qadriyatlarning qadriga yetmaydi. Shu o'rinda o'sib kelayotgan yosh avlodni mamlakatimiz va o'z kelajagiga bo'lgan ishonch odobini tarbiyalash ta'lim olishida, shaxsiy hayotida, kelgusi ish faoliyatida, jamoa orasida qat'iy harakat qilishida katta ahamiyatga ega. Har bir ma'naviyatli, ongli insonda vatanidan faxrlanish tuyg'usi bo'lishi, unga munosib bo'lishga harakat qilishi lozim. Uni rivojlantirish, shakllantirish va yosh avlodni milliy qadriyatlар asosida to'g'ri tarbiyalash har bir davlat va jamiyat oldidagi muhum vazifadir. Bolalarda vatan tuyg'usini tarbiyalash, ajdodlar o'tmishi, kechinmalari, madaniyati jahon fan va madaniyati sohasida tutgan o'rni haqida ma'lumot berish muhum ahamiyatga ega.

Shaxsni tarbiyalash eng dolzarb ijtimoiy va pedagogik muommo hisoblanadi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat talablari asosida tarbiyalashda ta'lim sub'ektlari o'rtasidagi uzluksizlikni hamda fan predmetlari o'rtasidagi integratsiyani ta'minlash zaruriti

mavjud. Inson o‘zi o‘zida ezgulikni yaratish, ma’naviy yuksalish uchun mas’ul, ammo shu bilan birga insonning yuksalishida ta’limning roli nihoyatda katta ekanligini inkor etib bo‘lmaydi. Inson tarbiyasi masalasi, ularni nuqsonlardan, hayvoni yusurlardan qutqarish ajdodlarimizning azaliy qayg‘usi bo‘lib kelgan. Shaxs, millat, insoniyat ma’naviyatining holati va darajasi jamiyat taraqqiyotiga turlicha ta’sir etishi mumkunligi qadim zamonlardan beri ma’lum. Jamiyat hayotidagi barcha yuksalishlar, taraqqiyot imkoniyatlar, komil inson shaxsining shakllanishi muayyan imkoniyatlar bilan bog‘liq. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotidagi tushkunliklar, turg‘unlik holatlari, iqtisodiy, siyosiy omillardangina emas, balki kishilarning ongi, e’tiqodi, dunyoqarashi, axloqiy kamoloti darajasidan ham izlash kerak.

“Tarbiya” va “tarbiyat” so‘zlari 1)parvarish qilmoq; ta’lim bermoq; o‘rgatish; 2)navozish; mehribonlik ko‘rsatish; ko‘z-quloi bo‘lish; himoya qilish; kabi ko‘p qirali ma’nolarga ega[2]. “Tarbiya”atamasi XVII-XIX asrlarda hozirgi bizning davrimizga qaraganda boshqacha ma’noga ega edi. Bu davrlarda bolalarning normal o‘sishi va rivojlanishini ta’minlash deb tushinilgan bo‘lsa, XX asrda ushbu atama yangi mazmun bilan to‘ldirilib bunda barcha rivojlanish omillari (tasodifiy, stixiyali va maqsadli)ta’sirida shaxsning shakllanishi, natijada esa madaniyatni egallashi va jamiyat a’zosiga aylanishi sifatida talqin etildi. “Tarbiya”tushunchasi “shakllanish”, “ijtimoiylashish” tushunchalari bilan birlashib, pedagogik tushunchadan ko‘ra ko‘proq psixologik va sosiologik tushunchaga aylandi.

Tarbiya –bu ma’lum madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda yosh avlodni hayotga tayyorlash shaxsni rivojlantirish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qaratilgan bolalar va kattalar o‘rtasidagi ta’limning maqsadli boshqariladigan ochiq tizimidir.

Inson asosan ikki xil yo‘l bilan tarbiyalanishi mumkun: birovlarning bevosita ta’siri, ya’ni o‘rgatishi, shuningdek donolar fikrlari, o‘gitlari va asarlarini o‘qish orqali; inson o‘zining fiklashi, odamlar hatti-harakatidan, qilgan va qilayotgan ishlaridan tegishli xulosalar chiqarib olishi,-eng qudratlisi-tafakkuri vositasida tarbiyalanishi mumkun. Har bir xalq va davlatda amalga oshirilayotgan tarbiya jarayoni umuminsoniy tarbiya tizimining tarkibiy qismidir. Demak mamlakatda olib borilayotgan siyosat kabi, tarbiya jarayoni ham umumbasharish extiyojlardan kelib chiqishi lozim. Sababi insoniyat tamadduni taqdiri barcha xalqlar uchun bir xil qimmatlidir. Dunyoda ijobjiy xususiyatlaridan ko‘ra ko‘proq milliy tarbiya asoslariga tobora ko‘proq xavf solayotgan

globallashuv jarayoni va ommaviy madaniyatning salbiy jihatlari, global muommolar: giyohvandlik; ekstremizm va terrorizm xavfi; turli ekologik muommolar butun insoniyat oldida tarbiya masalasini global muommolardan biriga aylantirmoqda. Ushbu jarayonlar xavf va tahdidlarga qarshi millatlararo pedagogik birlikni taqozo qilmoqda.

Ota-bobolarimiz “Agar kishiga hayotning o‘zi berolmasa ta’lim, unga o‘rgata olmas hech bir muallim”deya juda asosli fikr aytishgan[5].

Birinchi prezidentimiz haqli ravishda “Tarbiyachi- ustozi bo‘lish uchun, boshqalarning aql-idrokini o‘stirish ma’rifat ziyosidan bahramand qilish, haqiqiy vatanparvar, haqiqiy fuqaro etib yetishtirish uchun avvalo, tarbichining ana shunday yuksak talablarga javob berishi, ana shunday fazilatlarga ega bo‘lishi kerak” degan edilar[3]. Tarbiya mavsumiy, ma'lum bir vaqtga mo‘ljallangan ish emas, balki jamiyat va davlat ahamiyatiga molik kechiktirib bo‘lmas, uzlusiz davom etadigan jarayon va strategik masaladir. Tarbiya jarayoni o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’sirida amalga oshiriladigan dinamik tizim sifatida qaraladi. Tarbiya jarayoni ta’lim muassasasi pedagogik faoliyatining yadrosidir[4]. Barqaror axloqiy xulq-atvorga ega, qobiliyatli shaxsni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, o‘z taqdirini o‘zi belgilash, jamiyatda o‘zini o‘zi moslashtirish, vatanparvarlik, fuqarolik va ma’naviy-axloqiy tarbiya, sog‘lom turmush tarzini o‘quvchilarga singdirish tarbiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Maktab o‘quvchilarini kelajakka yo‘naltirish: o‘ziga bo‘lgan ishonchni rivojlantirish, ularga o‘ziga xosligini tushunishga, boshqa odamlarning fikrlarini hurmat qilishga o‘rgatish, o‘zini xolis baholash, o‘z qobiliyatlari, malakalarini hisobga olgan holda kelajak uchun real rejalar tuzish, o‘z-o‘zini anglashi, o‘zini boshqarish tizimini takomillashtirish ishbilarmonlik, axloq va tashabbuskorlikni tarbiyalash, ularning oilalari, o‘qituvchilar bilan o‘zaro aloqalarini faollashtirish lozim. Bizning fikrimizcha tarbiya jarayoni maxsus ishlab chiqilgan bo‘lishi, ya’ni bolaning o‘z-o‘zini rivojlantirish, o‘z-o‘zini boshqarish imkoniyatlari bilan uyg‘unlashtirilgan maqsadga muvofiq tizim bo‘lgandagina haqiqiy bo‘ladi. XXI asr kishisi umuminsoniy qadriyatlardan va bugungi kun haqiqatlaridan kelib chiqib, jismonan sog‘lom, ma’naviy axloqiy, intellektual jihatdan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan bo‘lishi shu bilan birga dunyoda sodir bo‘layotgan jarayonlarga loqayd bo‘lmasligi, tashqi olam bilan faol aloqada bo‘lishi lozim. Bolaning shaxs sifatida shakllanish va ijtimoiylashuv davri asosan maktab tizimida yuz beradi.

Inson va jamiyatatning mavjudligini ta’minlaydigan qadriyatlар milliy tarbiya tufayli ajdodlardan asta-sekin avlodlarga o’tadi.

Milliy tarbiya atamasi keng va tor doirada ishlatiladi. Keng ma’noda, u inson shaxsini shakllantirishga, uning ishlab chiqarish

va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotda faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ma'naviy ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Demak milliy tarbiya nafaqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar, balki butun ijtimoiy tuzum va uning yetakchi g'oyalari, hatto adabiyot, san'at, kino, radio, TV, OAV va boshqalarni o'z ichiga oladi. Shunungdek, milliy tarbiya tarkibiga bu sohada ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi. Tor ma'noda, milliy tarbiya muayyan shaxsning ma'naviy rivoji, dunyoqarashi, axloqiy qiyofasi, estetik didi o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bizga ma'lumki, har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'la oladi.

NATIJALAR

Mamlakatimizda mustaqillik yillarda milliy tarbiyani samarali tashkil qilishda o'quv muassasalari va umumta'lim mакtablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga e'tiborni kuchaytirish jiddiy masalaga aylandi. Shu maqsadda 2004-2009 yillarda maktab ta'limini rivojlantirish umummilliy dasturi qabul qilindi. Unga muvofiq mamlakatimizda mavjud on mingdan ortiq umumta'lim maktrablarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ta'lim jarayonining mazmunini tubdan takomillashtirish, o'qituvchilarning mehnatini moddiy va ma'naviy rag'batlantirish bo'yicha katta ishlar qilinmoqda. Umuman olganda, oxirgi yillarda mamlakatimizda milliy tarbiyani yaxshilash masalasida tizimli islohatlar amalga oshirilmoqda. 2019 yil 20 iyunda Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasining qabul qilinishi bu borada ildam qadamlardan biri bo'ldi. Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini amalaga oshirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzluksiz ma'naviy tarbiyaning samarali usullari va amalaga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish hisoblanadi. Konsepsiya yosh avlod tarbiyasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ustuvor vazifalar, asosiy maqsad va yo'nalishlarni belgilab berdi [1]. Konsepsiya belgilangan yo'nalishlar mamlakat yoshlarini ma'nan va jismonan barkamol qilib tarbiyalash, iqtidori va salohiyatini ro'yobga chiqarish, ularni davlat va jamiyatning rivojiga keng jalg etish, tashabbuslarini yetarli darajada qo'llab-quvvatlash maqsadida huquqiy asoslar, iqtisodiy imkoniyatlar va tashkiliy mexanizmlarni yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Mazkur Konsepsiya O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi, «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonunlari, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan hujjatlari, xususan «Bola huquqlari

to‘g‘risida»gi, «Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida»gi konvensiyalar, Birlashgan Millatlar Tashkilotining «Yoshlar-2030» strategiyasi hamda O‘zbekiston Respublikasining ta’lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asoslanadi.

Konsepsiya belgilangan vazifalar O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi talablari, Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiysi, milliy va jahondagi ilg‘or tajribalar, mamlakatimizdagi ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar bilan uyg‘un ravishda amalga oshiriladi. Konsepsiyaning maqsadi -yosh avlodda mustaqil hayot uchun zarur ijtimoiy ko’nikma va fazilatlarni yoshiga mos, bosqichma-bosqich shakllantirish asosida yuksak fazilatli, barkamol avlodni vaoyaga yetkazishdan iborat. Konsepsiya to’rtta bosqichda amalga oshirilishi ko’zda tutilgan bo’lib quyidagi bosqichlarga bo’linadi:

- birinchi bosqich: oilalarda (homila davri,bola tug’ilganidan 3 yoshgacha);
- ikkinchi bosqich: maktabgacha ta’lim3-6(7) yoshgacha bo’lgan davr;
- uchinchi bosqich:(7(6)-10) yoshgacha boshlang’ich sinf, 11-17 (18) yosh);
- to’rtinchi bosqich:ishlab chiqarishda faoliyat korsatayotgan va band bo’lmagan, shuningdek, o’rta maxsus kasb-hunar va OTM tizimidagi yoshlar .

XULOSA

Yuqorida fikrlardan ko’rinib turibdiki, milliy tarbiya har qanday jamiyat va mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Chunki uning o’sishi har qanday jamiyat va davlatda hal qiluvchi ahamiyatga ega.Buning uchun o’sib kelayotgan yosh avlod o’z ajdodalaridan ham yuqoriqoq natijalarga erishsishi lozim bo’ladi. Ammo, bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida axloqga zid bo’lgan harakatlar natijasida katta ma’naviy yo‘qotishlar yuz berayotgani millatning asriy qadriyatları, millatning asriy qadriyatları, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq-odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash sharti jiddiy xavf ostida qolayotganini kuzatish mumkun[6]. Bugungi globallashgan XXI asrda yoshlarimizni axloqimizga zid bo’lgan illatlardan va tahdidlardan saqlash eng asosiy burchimizdir.

REFERENCES

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 7.07.2020.санасидаги 422-сонли қарори. <https://lex.uz/ru/docs/4885018>
2. Ўзбек тилининг изоҳли луғати.2 жилдлик,II том,-М.: «Рус тили нашриёти», 1991, 125-б.
3. Каримов И.А.Буюк келажагимизнинг ҳақиқий кафолоти, Тошкент, “Шарқ” нашриёт- матбаа концернининг Бош таҳририяти, 1993, 27-28-бетлар.

4. Н.М.Кошанова.Умумтаълим мактабларида синф раҳбарлари фаолиятини ривожлантириш механизмлари(кластер ёндашуви асосида)" // пед.фан.фалсафа доктори дисс. Чирчиқ, 2022. – Б. 160.
5. Сафо Очил.Мустақиллик маънавияти ва тарбия асослари. Тошкент “Ўқитувчи”1995.-Б. 208.
6. М.К.Рашидова.Тарбияда инсоний фазилатларнинг намоён бўлиши.//Academic Research in Educational Sciences, 3 (12) ,2022. -P.276-280.